

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
<p data-bbox="165 400 696 703">DNK marker texnologiyasidan foydalanib abiotik va biotik stress omillarga chidamli hamda dorivorlik xususiyatlari yuqori bo‘lgan malina (<i>Rubus idaeus</i> L.) ning yuqori hosildor yangi F₁ duragaylarini yaratish</p> 	<p data-bbox="801 357 1178 392">Tadqiqot shakli: Amaliy.</p> <p data-bbox="801 397 1189 432">Ilmiy tadqiqot natijalari:</p> <ul data-bbox="728 437 2078 963" style="list-style-type: none">- DNK markerlari yordamida dorivorlik xususiyatlari yuqori bo‘lgan istiqbolli ota-ona shakllari aniqlanadi va ularning seleksiya jarayonidagi ahamiyati ilmiy asoslab beriladi;- Molekulyar-genetik usullar asosida dorivorlik xususiyatlari boy, yuqori hosildor va stress omillarga chidamli F₁ duragaylar tezkor seleksiya usuli bilan yaratiladi;- Malina mevalarida biologik faol moddalar (antioksidantlar, vitaminlar, fenol birikmalari, flavonoidlar va organik kislotalar) miqdori hamda ularning dorivorlik ahamiyati molekulyar va biokimyoviy darajada baholanadi;- Hosildorlik, meva sifati, kasalliklarga chidamlilik, ertapisharlik hamda dorivorlik xususiyatlari DNK markerlari orqali erta bosqichda skrining qilinadi, bu esa seleksiya jarayonida vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi;- Loyiha natijalari mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga mos, biologik faol moddalarga boy, yuqori hosildor va kasalliklarga chidamli dorivor malina navlarini yaratishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. <p data-bbox="728 968 2078 1166">Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasiga qarashli tashkilotlarda yoki Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining xulosasi olinadi.</p> <p data-bbox="728 1171 2078 1331">Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi</p> <p data-bbox="728 1335 2078 1412">Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>